

UDK: 619.616.995.121.

INVAZION KASALLIKLAR BILAN KASALLANGAN HAYVON MAHSULOTLARINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN BAHOLASH

Raxmatova Sh. – magistrant.

Suyunova Z.B. – student.

Rasulov U.I. - v.f.d., dotsent.

Dusqulov V.M. - v.f.n., dotsent v.b.

**Samarqand davlat veterinariya medisinası, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo‘jalik hayvonlari orasida invazion kasalliklarining tarqalishi, mazkur kasalliklar natijasida hosil bo‘lgan zaharlarning hayvon organizmiga hamda hayvonot dunyosidan olingan mahsulotlarning insonlar organizmiga salbiy ta‘sirleri keltirilgan.

Аннотация: В статье представлено распространение инвазионных болезней среди сельскохозяйственных животных, негативное влияние ядов, вырабатываемых этими болезнями, на организм животных, а также негативное влияние продуктов животного происхождения на организм человека.

Abstract: This article presents the spread of invasive diseases among farm animals, the negative effects of poisons produced by these diseases on the animal body, and the negative effects of animal products on the human body.

Kalit so‘zlar: gelmintlar gelmintoz, parazitologiya, exinokokkoz, senuroz, invaziya, fasellyoz.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunning muhim vazifasi qishloq xo‘jalik hayvonlarining turli invazion kasalliklaridan muhofaza qilish ulardan olinadigan mahsulotlarni inson organizmiga salbiy ta‘sirini kamaytirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bu chorvachilik sohasi bo‘lib, qishloq aholisini bandligi hamda daromadini ta‘minlash, ichki iste‘mol bozorini ekologik toza, sifatli chorvo mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Chorvachilik sohasini ilmiy asosda tashkil etish, ishlab chiqarishda ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy fan yutuqlarini qo‘llash orqali hayvonlarning mahsuldorligini oshirishga katta etibor qaratilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: Invazion kasalliklarning tarqalishi, invazion kasal hayvonlardan olinadigan mahsulotlarni inson organizmiga ta‘sirlerini o‘rganish, qushxonalarda invazion kasalliklar bilan kasallangan hayvonlarda klinik, patologoanatomik va morfologik tekshirishlar olib borishdan iborat.

Tadqiqotlar taxlili. Invazion kasalliklar dunyoda keng tarqalgan xavfli gelmintoz va zooantrapanoz kasallik hisoblanadi. Hayvonlar va odamlar orasida exinokokkoz va senurozlarni tarqalishiga itlar asosiy sababchi xisoblanadi. Muallifni tekshirishlaridan ma‘lumkim itlarda 33,0 foizga multitsepslar bilan, 21,2 foiz exinakokklar va 24,2 foizga teni gidatigenlar bilan zararlanganligi aniqlangan. Suruv itlarini multitsepslar bilan 35,7 foizga, exinakokklar va teni gidatigenlar bilan 25,0

foizda zararlanganligi aniqlangan. 2004 yilda bayon etilgan ma'lumotlarga ko'ra Qaroqolpog'iston xududida paramfistomatoz qoramollarda o'rtacha 2,12 foiz, shimoliy mintaqalarda 3,6 foiz, markaziy mintaqasida 2,2 foiz zararlanganligi aniqlangan. So'nggi yillarda parazitlar va invazion kasalliklar bilan qoramollarning kasallanish darajasi 60,0 foiz va undan ortiq bo'lishi kuzatilmoqda. Paramfistomatozlarning etiologiyasi va epizootologiyasida *P.cervi* asosiy tur bo'lib hisoblanadi. Respublikamiz xududida trematodozlar orasida fassiolyozdan tashqari boshqa trematodozlar, orientobilgarsioz va paramfistomatozlarning lokal tarqalish xususiyatiga ega ekanligi qayt etilgan. Paramfistomatozni tarqalishi uchun ko'pchilik xududlarda sharoit yetarli ekanligi ko'rsatilib, bu kasallikni lokal o'choqlari Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida paydo bo'lganligi, oldi olinmasa, kasalliklar keng tarqalishi mumkinligi haqida ma'lumotlar keltirilgan 2015-2019 yillarda Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida olib borgan tadqiqotlar natijasida qoramollarning 45-78 foizi paramfistomatozlarga chalinganligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Tekshirish usul va materiallari: Kushxonalarda invazion kasalliklar bilan kasallangan qoramol, qo'y, parrandalar so'yilganidan so'ng ularning organ va go'shti klinik, organoleptik, patologoanatomik, morfologik, tekshirishlar olib boriladi. Invazion kasalliklar bilan kasallangan hayvonlar qonining biokimyoviy ta'lili, gemotologik qabul qilingan umumiy usullar yordamida aniqlanadi. Tekshirishlar 10 bosh qoramol 10 bosh qo'ylarda olib borildi. Birinchi tajriba guruhidagi 5 bosh qoramol invazion kasalliklar bilan kasallangan va 5 bosh sog'lom qoramolda hamda 5 bosh invaziya bilan kasallangan qo'y va 5 bosh sog'lom qo'ylarda tajribalar olib borildi. Invaziya bilan kasallangan qoramol va qo'ylar so'yilib ularni go'sht va go'sht maxsulotlarini Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2008 yil 19 iyundagi 85-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish Qoidalari asosida organoleptik va laboratoriya tekshirishlari olib borildi.

Olingan natijalar. Tajribadagi hayvonlar so'yilganda ularning go'shtlari va ichki organlarining sifat ko'rsatgichlarini aniqlash uchun belgilangan Davlat veterinariya standartlariga muvofiq ekanligini aniqlash maqsadida eng avvalo invazion kasalliklar bilan kasallanib so'yilgan mollardan namunalar olinib organoleptik va laboratoriya usullari yordamida tekshirildi. Go'shtning organoleptik usulda tekshirishda asosan quyidagilarga e'tibor qaratildi, ya'ni tana go'shtini tashqi ko'rinishiga, rangiga, hidiga, muskul to'qimasi konsistensiyasi va teri osti yog'lari tekshirildi. Invazion kasalliklar bilan kasallangan hayvonlar tana go'shti arriqligi, rangi sarg'ayganligi ayrimlariniki biroz ko'kintir va och qizg'ish ekanligi aniqlandi. Tana go'shtining xidi ayrimlarida ya'ni 2 ta namunada badbo'yli va qolgan namunalarda esa o'ziga xosligi, muskul to'qimasining konsistensiyasi biroz qattiqlashgan, ko'p xolatlarda bo'shashgan konsistensiya aniqlandi. Tana go'shtining teri osti yog'lari oq-sariq va oq-sarg'ish rangda ekanligi aniqlandi. Aloxida kasalliklarga to'xtaladigan bo'lsak fassiiolez hayvon gavdasi oriq, shilliq pardalar oqargan, qorin bo'shlig'ida, yurak haltasida ko'p miqdorda suyuqlik to'planadi, linfa tugunlar kattalashadi, muskullar oqish rangda, tolalari ingichka qonsizlangan holat kuzatiladi, go'shtni koloriyasi past bo'ladi. Askaridozlarda hayvon ozib ketadi,

askaridalar ajratgan toksinlar hayvon nerv sistemasini shikastlaydi, terida shishlar va krapiv toshmachalar hosil bo‘lishi zaxarli ta‘sirning yaqqol ko‘rinishidir. Hayvon go‘shining sifat ko‘rsatgichlari pasayib ketadi so‘yilgan go‘sh t oqargan, tolalar ingichka, muskul to‘qimasi konsistensiyasi bo‘shashgan, yog‘ to‘qimasi bo‘lmasligi, go‘sh t shilimshiq yopishqoq bo‘ladi. Exinokokoz va senuroz kasalliklarida hayvon juda ozib ketadi, exinokokozda ichki organlarda suyuqlikka to‘lgan pufakchalar (protoskoleklar) bo‘lishi bilan izoxlanib, organlar foliyatini izdan chiqaradi, bo‘shliqlarda suyuqlik to‘planishi bilan kechadi. senuroz kasalligida hayvon ozib ketishi, o‘shish va rivojlanishdan qoladi, reproduktiv faoliyati izdan chiqadi bunday hayvonlarni go‘sh t va go‘sh t maxsulotlari istimolga yaroqsiz bo‘ladi. Go‘sh tining sifat ko‘rsatgichlari pasayib ketadi so‘yilgan go‘sh t oqargan, tolalar ingichka, muskul to‘qimasi konsistensiyasi bo‘shashgan, yog‘ to‘qimasi bo‘lmasligi, go‘sh t shilimshiq yopishqoq bo‘ladi.

Xulosa: Invazion kasalliklari bilan kasallangan hayvon o‘shishdan qolishi, maxsuldorligi pasayib ketishi, organizm rezistentligini pasayishi natijasida kasalliklarga beriluvchan bo‘lib qoladi. Bunday hayvonni go‘sh t va go‘sh t maxsulotlari to‘g‘ridan to‘g‘ri istimolga yaroqsiz hisoblanadi, olingan maxsuloti ikkilamchi ishlov berishdan so‘ngina ishlatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Avezimbetov Sh.D. Qoraqolpog‘iston Respublikasida qoramollar va qo‘ylar trematodozlarining bioekologik va epizootologik xususiyatlari. V.f.n.Dissertatsiya avtoreferati materiallari. Samarqand 2007.
2. Aminjanov Sh.M. Itlarni tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida sestodlar bilan zararlanishini o‘rganish. Uchunchi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Smarqand-2004 yil. 12-13 b.
3. Daminov A. Paramfistomatidoz – xavfli trematodoz kasallik// Zooveterinariya jurnali Toshkent, 2009. №6 B.17.
4. Kaypanov M.T. Qoraqolpog‘iston Respublikasi qoramolchilik xo‘jaliklarida gelmintozlarning tarqalishi. «Xayvonlarning o‘ta xavfli kasalligini tarkalish va oldini olish monitoringi» Ikkinchi xalkaro ilmiy konferensiya to‘plami. Samarkand – 2004 St. 105-108.
5. G‘afurov, A.G‘., Davlatov R.B., Rasulov U. I. Veterinariya protozoolo-giyasi. O‘quv qo‘llanma, T.: "Zarafshan".